

## **MAQOM IJROCHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

Ahmed Shukurov

O‘zDSMI, “Milliy qo‘sishqchilik” kafedrasi professori.

### **Annotatsiya:**

Maqom sehrli va an'anaviy san'at. Qalbga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. O‘zbek xalqining mumtoz musiqa merosi azaldan shakllanib, xalq orasida qadrlanib kelingan. Shu bois bizning milliy musiqa san'atimizni jahonga yuz tutishida, mumtoz musiqa, milliy qo‘sishiqchiligidan umuman olganda madaniyatimizning o‘ziga xos o‘rnini mavjud. Musiqa san'atini buyukligi, avvalo ijodiyot an'analarning amaliy mahsulidadir. Ushbu maqolada o‘zbek milliy maqom san'ati, maqom ijrochilik san'atining rivojlanish bosqichlari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maqom, an'ana, ijrochilik, ijrochilik, musiqa, san'at.

### **Аннотация:**

Маком – магическое и традиционное искусство. Он дарует мир и спокойствие сердцу, чистоту и умеренность духу. Классическое музыкальное наследие узбекского народа формировалось с незапамятных времен и ценилось в народе. Поэтому классическая музыка, национальное пение и наша культура в целом играют особую роль в представлении миру нашего национального музыкального искусства. Величие музыкального искусства — это прежде всего практический продукт творческих традиций. В данной статье научно анализируются этапы развития узбекского национального искусства макома, искусства макомного исполнительства.

**Ключевые слова:** статус, традиция, перформанс, перформанс, музыка, искусство.

### **Abstract:**

Makam is a magical and traditional art. He gives peace and tranquility to the heart, purity and moderation to the spirit. The classical musical heritage of the Uzbek people has been formed since time immemorial and was valued among the people. Therefore, classical music, national singing and our culture as a whole play a special role in presenting our national musical art to the world. The greatness of musical art is first and foremost a practical product of creative traditions. This article scientifically analyzes the stages of development of the Uzbek national maka art, the art of makam performance.

**Key words:** Makam, tradition, performance, performance, music, art.

Yuqorida aytganimizdek ozbek xalqining og‘zaki an’anadagi mumtoz musiqa merosi azaldan shakllanib, xalq orasida qadrlanib kelingan. Shu bois bizning milliy musiqa san’atimizni jaxonga yuz tutishida, mumtoz musiqa, milliy qo‘shiqchiligidansabiqning va umuman olganda madaniyatimizning o‘ziga xos o‘rni mavjud. Musiqa san’atini buyukligi, avvalo ijodiyot an’analarning amaliy mahsulidadir.

O‘zbek musiqa merosi o‘zining teran ildizlari bilan milliy qadriyatlarimizning asoslaridan biri bo‘lib kelgan. Azal-azaldan ular boy va ko‘hna tarixiy ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Shu bois benazir musiqiy merosimizning shakillanishi va rivojlanish jarayonida, xalqimizga xos bo‘lgan milliy urf-odatlar asos bo‘lib xizmat qilgan desak mubolag’asiz bo‘ladi. Milliy musiqiy an’analaramiz – o‘zining badiiy va estetik qiymatini xozirgi kungacha saqlab kelmoqda.

XX asrning boshlariga qadar “Maqom ansamblari” Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon, Toshkent va boshqa yirik shaharlarda, xususan saroy sharoitida mumtoz milliy musiqa ijodiyotini keng targ‘ib qilish maqsadida qayta tuzilgan. O‘tmishda “Maqom ansamblari” tomonidan maqomlar yaxlit turkum holda yoki ularning alohida-alohida cholg‘u va ashula qismlari ijro etilgan. Bunda jumladan, Shashmaqom Talqin, Nasr, Savt kabi sho‘balarini aytishga ixtisoslashgan hofizlar talqinxon, nasrchi, savtxon deb yuritilgan. Ularga tanbur, doira yoki ixcham cholg‘u ansambli jo‘rlik qilgan. Jumladan, 19-asrning oxirida Buxoroga mos “Maqom ansamblari” tarkibida, odatda, 2ta tanbur, dutor, qo‘biz (yoki sato), doira va 2-3 nafar jo‘rovoz hofizlar bo‘lgan. 1920-yillarda tashkil topgan Sharq musiqa maktablarida, Samarqand musiqa va xoreografiya institutida maqom ijrochiligidansabiq berishda Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘ani, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Matyoqub Xarratov kabi yirik maqomchi ustozlar xizmat qilganlar.

Muhtaram Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi “Milliy maqom san’atini rivojlantirish va yoshlarni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, ularning estetik didi va tafakkurini shakillantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan foydalanish to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi PQ-3391-sun qarori e’lon qilingandan keyin respublikamizda milliy va mumtoz musiqa san’atining, milliy musiqiy ta’limning yanada rivojlanishining ta’minlanishiga katta imkoniyatlar paydo bo‘ldi. “Maqom” san’atiga mamlakat rahbari darajasidagi bu qadar alohida e’tibor, bunday munosabatdan yurtimizda ijod qilayotgan barcha milliy mumtoz ijrochilik san’ati sohiblari, ustoz san’atkorlar, hofizlaru-sozandalar, bastakoru navozandalarning ham xursandchiligi behad oshdi.

Xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli bo‘lgan “Shashmaqom” ya’ni, Olti maqomni, ta’bir joiz bo‘lsa, olti azim daryoga qiyoslash mumkin. Bu daryolar asrlar davomida jahon madaniyat ummoniga quyilib, uni har tomonlama to‘ldirib, boyitib kelmoqda. Shuning uchun ham bu muazzam musiqiy durdona YUNESKO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora – tadbirdari to‘g‘risida”gi PQ-3391-sun qarori.

kiritilgani chuqur ma’no va ahamiyatga ega. Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san’atining o’rni va ahamiyatini hech narsa bilan o’lchab, baholab bo‘lmaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak avvalo mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizni safarbar etishimiz zarur. Maqom san’atining madaniy hayotimizdagi ana shunday beqiyos ta’sirini inobatga olib, mamlakatimizda bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda”.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san’atini o‘rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O‘zbek “Shashmaqom”i nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-ashulalarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqeа bo‘ldi<sup>2</sup>. Bugungi kunda yurtimizda Respublika teleradio eshittiish qo‘mitasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi Maqomchilar ansamblı, viloyatlar markazida maqom jamoalari, shu yo‘nalishda maxsus kafedra faoliyat ko‘rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim” Ushbu qarorda yosh avlodning ta’lim va tarbiyasiga taa’luqli muammo va kamchiliklar ham bayon qilingan. “Ayni vaqtida milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanimayabdi. Mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio-televideenie, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘I orqali mamlakatimizda vac het ellarda targ‘ib etish, maqom ustozlari, soha olimlariva mutahasislari, iqtidori va istiqboli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash ishlar e’tibordan chetda qolib kelmoqda”. Xususan bu kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha qarorning yakuniy qismida aniq va maqsadli ko‘rsatmalar ham berilgan.

Musiqiy merosimiz va ijrochilik san’ati avloddan – avlodga og‘zaki ravishda o‘tib kelgan.<sup>3</sup> Ular Buxoro “Shashmaqom”lari, Xorazm maqomlari va Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llaridir. O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarda musiqa merosimizni o‘rganish va fonogrammaga yozish, shuningdek notaga tushirish bo‘yicha talay ishlar amalga oshirildi. Bunday muhim masala bilan yirik musiqashunos olimlar, kompozitorlar V.Uspenskiy, I.Akbarov, V.Belyayev, E.Romonovskaya, A.Kozlovskiy, Y.Rajabiy, F.Karomatov kabi ustozlar bevosita, shug‘ullandilar. Milliy musiqiy meros namunalaridan foydalanish masalalari pedagog, san’atshunos olimlar – T.G‘ofurbekov, A.Jumayev, O.Ibragimov,

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-sون qarori.

<sup>3</sup> Y.Rajabiy. “O‘zbek xalq musiqasi” – Toshkent sh – 1959-yil.

F.Karomatov, G.Azimova, A.Nazarov, A.Odilov, M.Toirov, M.Toshmuxammedov, F.Abdurahimovalar olib brogan tadqiqot ishlarida bat afsil yoritilgan.

Ma'lumki, Yunus Rajabiy tomonidan 1959-yilda asos solingan Maqomchilar ansambliga turli davrlarda ustoz-darg'alar o'zlarining keng ko'lamli hissalarini qo'shishgan.

Xalqimiz ma'naviy va madaniy boyligining ajralmas bir qismi bo'lgan musiqa san'ati uzoq o'tmisht davrlarda vujudga kelgan. Asrlar davomida o'zbek xalqining tub milliy an'analari, folklor namunalari, mumtoz musiqa janrlari bastakorlik ijodiyoti asarlari turli xalqlar musiqa madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unligi va o'zaro ta'sir asosida maydonga kelgan. O'zbek xalqining boy an'anaviy musiqasi bilan yaqin asrlik bastakorlik san'ati mutanosibligida xx asrda yangi, professional kompozitorlik ijodiy yo'nalishi shakllandi va rivoj topdi. Ushbu qisqa vaqt ichida kompozitorlik ijodiyoti o'zbek zaminida o'ziga xos yumarga erishdi-ommaviy qo'shiqlardan boshlab simfoniya, musiqali drama, balet va opera kabi yirik janrlarigacha yuzaga keldi. Yangi musiqa ta'limi, zamonaviy iじro madaniyati ham taraqqiy topdi. Hozirgi kunda O'zbekiston musiqa madaniyatida an'anaviy (folklor va mumtoz) musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotlari, oxirgi yillarda shou-biznesga aylangan ommaviy musqa madaniyati, an'anaviy va zamonaviy ijrochilik san'ati Keng rivojlanib kelmoqda. O'zbek musiqasi tarixini o'rghanish, har bir kelajak avlodning o'tmisht va zamonaviy musiqa an'analarini va ijodiyotni mukammal bilish va idrok qilish uchun zamin yaratmoqda. 2003-yilning noyabr oyida o'zbek va tojik xalqlarining mumtoz musiqasining nodir xazinasi bo'lmish "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi" deb tan olindi. Shu tufayli asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan "Shashmaqom" turkumiga keng ma'noda maqomchilik san'atiga qiziqish dunyo miqiyosida tobora oshib bormoqda. Bu noyob merosimizni turli mamlakatlarida maqomchilar ansambl va yetuk san'atkorlarimiz tomonidan iじro etilishi har ikki yilda Samarcand Sharifida o'tkazish an'anaga aylanib qolgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali doirasida an'anaviy ijrochilik tanlovi bo'lib o'tishi va ularda maqom ijrochiligiga urg'u berilishi amaliy dalil bo'lmoqda. Bu nufuzli musiqa anjumaniga san'atkorlar bilan bir qatorda xalqimizning mumtoz musiqasi-maqomlar bilan shug'ullanuvchi olimlar ham tashrif buyurib, o'zlarining festival doirasidagi ilmiy-amaliy yig'ilishlarida maqomchilik san'atining tarixi, buguni va kelajagi haqida fikr yuritmoqdalar.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo Qadim-qadimlardayoq madaniyat o'chog'i, ilm-fan rivoj topgan zamin sifatida ma'lum va mashhur. Bu yerda yetishib chiqqan buyuk olimlar jahon fani, me'morchiligi, adabiyoti va san'ati rivojiga katta hissa qo'shib kelganlar. Shular qatori musiqa san'ati ravnaqida ham shu insonlarning ulushi katta bo'ldi.

Aytish mumkinki, biz bugun "Shashmaqom" deya atab e'zozlayotgan boy mumtoz musiqamizning shakllanishi, takomillashuvi, umuman taraqqiyoti o'sha davrlarda boshlangan. Dastlab un ikki maqom pardal tizimi, keyinchalik esa "Shashmaqom" shaklidagi bu merosning

ang yetuk bastakorlar, sozandayu-xonandalar tomonidan buniyod etilgan va takomiliga yetkazilgan.

“Shashmaqom” o‘z-o‘zidan bugungidek bir mukammal, yaxlit holga kelib qolmagan. Bu noyob meros musiqa bilan hayotni chambarchas bog‘lagan, bu dunyoning barcha go‘zalliklarini, moziyning o‘zi qadar ko‘hna ohanglarini tinglab his etgan insonlarning mashaqqatli izlanishlari evaziga qaytadan yangi bir go‘zal holga keldi. Buxorolik mashhur san’atkorlar, maqom san’atining yetuk bilimdonlari va ijrochilar bo‘lmish Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘ani, Levicha hofiz, Domla Halim Ibodov, Samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Toshkentlik Mulla To‘ychi hofiz va Shorahim Shoumarov, Xorazmlik Matyoqub Xarratov va Hojixon Boltaevlar bu me’rosning targ‘ibotchilari sifatida tarixda nom qoldirganlar.

O‘zbek maqomlarining yetuk bilimdoni, bastakor Yunus Rajabiy ham maqom ijrochiligini takomillashtirishga, targ‘ib etishiga, ularni keng ommaga yetkazishda jonbozlik qilganlar. U ilk bor O‘zbekiston radiosи qoshida tashkil etgan va o‘zi ko‘p yillar boshqargan hamda o‘zining muborak nomi bilan ataluvchi professional maqomchilar ansambl faoliyatini yuqorida fikrimizga dalil sifatida keltirib o‘tishimiz mumkin. Yunus Rajabiyning yana bir buyuk xizmati - u “Shashmaqom”ni to‘lig‘icha notaga tushirgan va yozib olgan. Keyinchalik kitoblar va gramyozuvlар shakillarida nashr ettirdi. “Shashmaqom” va turli maqomchilik san’aining namunalari O‘zbekiston radiosи Oltin fondidan joy oldi va o‘sha paytning o‘zida “Shashmaqom” nomli badiiy-musiqali filmlar ham ishlab chiqarildi. Bu ulkan ishlar “Shashmaqomom”ni saqlashga va rivoj topishiga zamin bo‘lib kelmoqda. Binobarin, shu durdona maqom asarlarining yangi uslubdagi ijro shakllari (ansambl ijrochiligi) va eng yuqori professional darajadagi original ijrolari ham yaratildi.

“Maqomlar rivojlanish jarayonida shaklan va mazmunan o‘zgarib borgan davr o‘tishi bilan qancha-qancha bastakorlar, xonanda va sozandalarning jon kuydirib izlanishlari, sayqal berishlari natijasida maqom yo‘llari mukammallahib, yaxlitlashib keldi”, deb ta’kidlaydi Yunus Rajabiy.

Darvoqe, o‘zbek xalqi musiqa san’atining beba ho durdonalaridan bolgan o‘zbek maqom turkumlari Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari va asarlarini zamonaviy nota yozuviga olish kabi amaliy ishlar XX asrning boshlarida yuzaga kelgan. Dastlab, Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan “Shashmaqom” V.Uspenskiy tomonidan yozib olindi, keyinchalik besh tomlik “Shashmaqom” to‘plami Sh. Sohibov va F.Shahobovlar yozuvida tojik tilida Moskvada nashr etildi (1951-1960).

O‘zbekistonda maqom san’atini rivojlantirish va notaga olishning amaliy ishlarini Yunus Rajabiy nomi bilan bog‘liqdir. “Uning maqomshunoslik faoliyatida deb yozadi Otanazar Matyoqubov, bir-biriga uzviy bog‘langan ikki yo‘nalish yetakchi o‘rin egallaydi. Bir tarafdan Shashmaqom ning nota matnlarini, ikkinchi tomondan, ularga muvofiq ovoz yozuвларини

yaratish amalga oshirildi. Yunus Rajabiyning ishlari o‘zining keng ko‘lamni tufayli Shashmaqom taraqqiyotining ma’lum davrini belgilovchi muhmtarixiy hujjatga aylanadi.

“Shashmaqom” turkumidan nafaqat ikki xalq, o‘zbek va tojik xalqari, balki butun dunyo xalqlari ham bahramand bo‘la oladigan darajaga, rivojiga birgalikda, hamjihatlikda erishish va bundan yuksak natijalarni qo‘lga kiritish hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biridir.

Endilikda “Shashmaqom”ni, umuman maqomchilik san’atining saqlanishi, himoya qilinishi va rivoj topishiga yanada yangi imkoniyatlar yaratildi. YUNESKO tomonidan qabul qilingan Markaziy Osiyo mumtoz musiqasi – “Shashmaqomni asrash” dasturi bo‘yicha yangi nashrlar, jumladan, Is’hoq, Rajabovning “Maqomlar” monografiyasi, “Shashmaqom” ilmiy ekspeditsiyasi, “Shashmaqom” CD, DVDlari va, ayniqsa, Yunus Rajabiy yozuvidagi “Shashmaqom”ning yangi nashri ham tayyorlandi. Ushbu to‘lam “Yunus Rajabiy va O‘zbek maqomlari”, “Shashmaqom” nomi bilan chop etildi. Yangi to‘plam olti tomlik “Shashmaqom” va Yunus Rajabiyning “Musiqa merosimizga bir nazar” (1978) kitoblari asosida nashr etilib, ayrim nota yozuvlari va she’r matnlari qayta ko‘rildi.

“Shashmaqom”ning qayta nashr etilishi, hozirgi kunda, ayniqsa, musiqa o‘quv muassasalarining uqituvchi va talabalari uchun va shu soha bilan qizikuvchi barcha musiqa muxlislari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv qo‘lanma sifatida ham o‘z vazifasini bajaradi. Musiqashunoslar orasida e’tirozlar ham yuzaga chiqdi va birinchi navbatda to‘plamning nomlanishi masalasida. Mazkur holatni e’tiborga olib, biz Yunus Rajabiy tomonidan oldinga surilgan “O‘zbek maqomlari” foydasini asoslash maqsadida quyidagi mulohazalarni yana bir karra ta’kidlashni o‘rinli deya olamiz.

1. Yunus Rajabiyning nashr etilgan to‘plami maqomlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda nafaqat “Shashmakom” turkumining nota yzuvlari, balki Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari mazmunini ichiga olingan. Ayrim nota matnlari maqomlar ustida olib borilgan izlanishlar natijasida Yunus Rajabiy tomonidan qayta ishlangan, sayqallar berilib boyitilgan. Ularning ba’zi qismlari, cholg‘u va ashula yo‘llari to‘ldirilgan, kengaytirilgan, usullari takomillashtirilgan. Ayrim maqom yo‘llarining kuylari Yunus Rajabiy tomonidan ham ijod etilgan, jumladan, yangi taronalar, talqin va talqinchalar, soqiynomalar va uforlar o‘sha kuylarning davomi sifatida nashrlarga kirib, ijro etilgan<sup>4</sup>.

2. Yunus Rajabiy maqomlar matnnini tanlashda, tuzishda mumtoz she’riyatimizning eng nodir, xalqchil asarlaridan va o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotidan ham nihoyatda ustalik, noziklik, zukkolik, donishmandlik bilan foydalana bilgan. Bu izlanishlar uning nashr etilgan kitoblari va ijod etilgan musiqa asarlarining yaratilishi jarayonida ham uzlusiz davom ettirilgan. Ushbu ishda o‘zbek shoirlarning maslahatlaridan keng foydalangan. Taniqli maqomshunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori Is’hoq Rajaboy Yunus Rajabiyga maqomlar matnlarini tanlashda faol qatnashgan va ularni tahrir etgan. U shunday degan edi: “Yunus Rajabiydek g‘azalni bir kuya ustalik bilan mos tushira biladiganini ko‘rmadim.

<sup>4</sup> Abdullayev R. “Yunus Rajabiy va O‘zbek maqomlari” maqolasi Toshkent – 2007. 12-15-b.

Mingdan ortiq kuylarga u tanlagan she'riy asarlar shu darajada monand kelardiki, go'yo g'azal shu kuyga atab yozilgandek yoki kuy ushbu g'azaldan kelib chiqandek, doimo go'zal yangragan. O'zbek maqomlariga tanlab kiritgan g'azallari uchungina shogirdlariga o'sha g'azallarning jumlalarini aniq, nozik qochirimlar bilan shirali ovozi uchun ham bu musiqamiz otaxoniga akademik unvoni berilsa arzir edilar.

3. Maqom asarlaridagi nota va ijro yozuvlarini yaratishida ulug' yoshga borib qolgan, aqluzakovatining ham eng yetuk darajasiga erishgan vaqtida turgan ustoz Yunus Rajabiyning eng asosiy maqsalaridan biri- maqom asarlarining nota matnlarini muxtasar etib ushbu asarlarning ijro variantining barchasini ohanrabo tasmalariga yozdirtirib, ularni yosh avlodga yetkazish va kelgusida yanada rivoj olishidir.

4. O'zbek an'anaviy musiqalarini, ayniqsa, maqomlarni, jumladan, Shashmaqomning tiklanishida, shakillanishi va rivoj topishida Yunus Rajabiyning qo'shgan hissasi beqiyos va olamshumul ahamiyarta ega bo'lgan.

5. O'zbekistonda maqomning uchta asosiy turi mavjud: Buxoro maqomlari yoki "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari" hamda Farg'ona-Toshkent maqomlari. Bularidan ba'zilari turli vohalarda yovvoyi maqom, ashula va cholg'u turkumlari, jumladan, dugoh va surnay yo'llari va alohida maqom asarları. Bularning hammasi bir yirik va bugunlikda tizimni - maqomorni tashkil etadi. Maqomotning rivoji XX asrda madaniyatshunoslik miqiyosi va milliy negiz uyg'un holda joriy etiladi. Bir tomonidan, maqomot O'rta Osiyo badiiy voqeligi (fenomen) sifatida yaratilsa, boshqa tarafdan u ushbu hududni XX asrda larzaga solgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazgan jonbaxsh kuch sifatida namoyish etilgan. O'zbekiston va Tojikistonda yangi milliy maqom udumlarining paydo bo'lishi ham aslida aynan ana shu umumiy jarayon bilan bog'liq deb ta'riflaydi A.Jumaev.

Bugun biz dunyodagi rivojlangan davlatlar bilan mustahkam a'loqa o'rnatib, yurtimizda erkin va farovon jamiyat barpo etayotgan ekanmiz, san'atni, musiqani o'zimizning ma'naviy hamrohimizga aylantirmasdan turib, ana shu yuksak marralarga erishishimiz, hayotimizni yanada mazmunli, yanada yorqin va har tomonlama mukammal qilishimiz mumkin emas, albatta. Mana shu ma'naviy ehtiyojni anglash, ajdodlarimiz yaratgan badiiy boyliklarning milliy va umuminsoniy mulkka aylanishiga hissa qo'shish har bir san'atkorning va ilm ahlining burchi hamda sharaflı vazifasidir.

O'zbek xalqi yaratgan badiiy me'ros o'zbek millatiga mansub. Demak, maqom ijodiyoti o'zbek musiqa merosining eng salobatli, eng sermahsul, eng ardoqli qatlaminu tashkil etadi. Endilikda esa maqom merosi xilma-xil milliy va mahalliy o'ziga xos ko'rinishlardan iborat bo'lgan behisob jonli cholg'u va ashula namunalarida namoyon bo'lmoqda. "Shashmaqom" jonli jarayon har bir tarixiy davr o'zgarishlar kiritadi va hayot taqazosi bilan ushbu jonli jarayon sayqal topib, o'zgarib boradi.

**Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son qarori.
2. Yu.Rajabiy nomidagi "Maqom" ansambli foto albom. Toshkent – 2019.
3. O.Matyoqubovning "Maqomot" (Matyoqubov O. Maqomot. – T.: Musiqa 2004).
4. Shashmaqom saboqlari, Toshkent – 2017.
5. Yu.Rajabiy. O'zbek maqomlari "Shashmaqom", Toshkent – 2007.
6. Y.Rajabiy. "O'zbek xalq musiqasi" – Toshkent sh – 1959-yil.
7. "Maqom san'ati va uning jahon svilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent – 2018.
8. Abdullayev R. "Yunus Rajabiy va O'zbek maqomlari" maqolasi. Toshkent – 2007.